



## O‘ZBEKISTONDA BOLALARNING JAMIYATGA MOSLASHUVINI TA‘MINLASHNING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Fayzullaeva Umida Xayrullo qizi

*NamDU 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekistonda uzluksiz ta‘lim tizimida bolalarning jamiyatga moslashuvini ta‘minlash ijtimoiy, huquqiy-me‘yoriy asoslari, maktabgacha ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** bola huquqlari; ijtimoiy moslashuv Markazi; xatarli guruhlar; ijtimoiy xatarli guruhlar; huquqiy xatarli guruhlar; davlat standarti; davlat talabi.

Bola huquqlari - bolaga nisbatan inson huquqlari toifasi, irqi, jinsi, tili, dini, tug‘ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, har bir bola ega bo‘lishi kerak bo‘lgan huquq va erkinliklardir.

O‘zbekiston Respublikasida bola huquqlarini himoya qilish, uning jamiyatda to‘laqonli yashashini ta‘minlash Davlat va Hukumatning ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Bolalarning huquqlari, erkinliklari va qruniy manfaatlarini ta‘minlash, ularning jismoniy, intellektual, ma‘naviy va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashish, bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish, bolalarning ijtimoiy ko‘nikmasiga ko‘maklashish [1] bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida e‘tirof etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorida ma‘naviy barkamol va jismoniy sog‘lom avlodni tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish, jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar, notinch oilalar bolalari yoki ota-onalari qarovisiz qolgan bolalarning to‘liq ijtimoiy moslashuvini ta‘minlash, ko‘rsatib o‘tilgan toifadagi bolalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish zarurligini jamiyatning ma‘naviy-axloqiy asoslari va negizini mustahkamlashning majburiy sharti sifatida jamoatchilik ongiga singdirish maqsadida [2] “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi” faoliyatini yo‘lga qo‘yishning me‘yoriy asoslarini tasdiqlandi.

Qarorda Markaz faoliyatining quyidagi asosiy yo‘nalishlari belgilandi:

jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar (nogironligi bo‘lgan shaxslar, jismoniy nuqsoni bo‘lgan hamda asab va ruhiyati buzilgan bolalar, surunkali og‘ir kasalliklardan azob chekuvchi bolalar) hamda ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlariga kiradigan bolalarning (etimlar, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosadigan shaxslarning qarovisiz qolgan bolalar, notinch oilalarning bolalari) ijtimoiy moslashuvi muammolarini o‘rganish, ko‘rsatib o‘tilgan muammolarni hal etish yuzasidan maqsadli kompleks dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek bolalar o‘rtasida jismoniy imkoniyatlari cheklangan, ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlar paydo bo‘lishiga olib keladigan omillarning salbiy ta‘sirini kamaytirish;



bolalarning alohida nochor guruhlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashtirish sohasida Vatan tajribasini, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rganish va umumlashtirish, bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat muassasalari va nodavlat muassasalarning amaliy faoliyatida ulardan foydalanish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

imkoniyatlari cheklangan, ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlariga kiradigan bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini o'rganish, zamonaviy talablarni va standartlarni hisobga olgan holda tizimning samaradorligini oshirishga doir kompleks dasturlar ishlab chiqish;

bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalalari bo'yicha o'quv-metodik va ma'lumotnoma qo'llanmalarining holati va sifatini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

bolalarning maqsadli guruhlariga mo'ljallangan tadbirlarga tegishli davlat dasturlari va jamoat loyihalari bajarilishi monitoringini olib borish, ularni amalga oshirish samaradorligini kuchaytirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ishlar masalalarida ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari bilan o'zaro aloqani amalga oshirish, ijtimoiy ishlar bo'yicha ta'lim standartlarini takomillashtirish, bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimida «ijtimoiy xodim» maqomini mustahkamlash;

jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalarga, ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlariga kiradigan bolalarga ruhiy-pedagogik, ta'lim va rehabilitatsiya dasturlarini amalga oshirish yo'li bilan amaliy yordam ko'rsatish;

bolalar huquqlarini himoya qilish, bolalar psixologiyasi va yoshga oid psixologiya, pedagogika, tibbiyot sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini, bolalarning zaif guruhlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashtirish sohasidagi xalqaro tajribani keng jamoatchilikka etkazish yo'li bilan bolalarni ijtimoiy moslashtirish masalalarida ma'rifiy va targ'ibot faoliyati, bolalarning ijtimoiy moslashtirish masalalarini hal etishga barcha manfaatdor tomonlarni jalb etish.

Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha olib boriladigan chora-tadbirlarni to'laqonli bajarilishini ta'minlash maqsadida “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazining Ustavi” ham tasdiqlandi. Ustavda ushbu markaz jismoniy imkoniyatlari cheklangan, ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlariga kiradigan bolalarni (etimlar, ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar qarovisiz qolgan bolalar, notinch oilalar bolalari), shuningdek, ijtimoiy moslashuvda qiyinchilikka ega bo'lgan, biroq xatarali guruhga kirmaydigan alohida iqtidorli bolalarni ijtimoiy moslashtirish muammolarini o'rganuvchi tashkilot ekanligi ta'kidlangan bo'lib, bolalar huquqlarini himoya qilish, bolalar psixologiyasi va yoshga oid psixologiya, pedagogika, tibbiyot sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini, bolalarning zaif guruhlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashtirish sohasidagi xalqaro tajribani keng jamoatchilikka etkazish yo'li bilan bolalarni ijtimoiy moslashtirish masalalarida ma'rifiy va targ'ibot faoliyati, bolalarning ijtimoiy moslashtirish masalalarini hal etishga barcha manfaatdor tomonlarni jalb etish [3] markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.



Mamlakatimizda bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari asosida hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari hisoblanadi.

Bola uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ya'ni ijtimoiy muhit uning jamiyatga moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Ma'lumki, ijtimoiy muhit insonning yashashi va faoliyati uchun uni o'rab turgan, ijtimoiy, moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi. Tor ma'noda ijtimoiy muhit (mikromuhit) bevosita bolani qurshab olgan oila, mahalla, tengqurlar jamosidan iborat bo'lib, ular bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi (ijtimoiylashuvi)ga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Ayni vaqtda bolaning ijodiy faolligi, faoliyatlari ta'sirida ijtimoiy muhit o'zgaradi, shuningdek bu o'zgarishlar jarayonida bolaning o'zi ham o'zgaradi, hayotiy tajribalari ortadi, bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkam o'zlashtira boradi.

Mamlakatimizda «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta'minlash, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti" tasdiqlandi.

Davlat standartining maqsadi — maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama etuk qilib voyaga etkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat [4]bo'lib unda bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini takomillashtirish hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida maktabgacha ta'lim — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon [5] ekanligi qayd etilgan. Davlat talablari tarkibini o'z ichiga olgan rivojlanish sohalari bo'yicha egallaydigan kompetensiyalar bolaning jamiyatga qo'shilishi, ijtimoiylashuvi uchun xizmat qilishi tabiiy.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi xisoblanib, asosan, uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muloqot va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl



va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala doirasining kengayishi, uning mazmunini chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "Men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini to'g'ri va rejali tashkil etilgan ta'lim va tarbiya tartibga soladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 7 январдаги “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги ЎРҚ-139-сонли Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 9 сентябрдаги “Республика болалар ижтимоий мослашуви марказини ташкил этиш тўғрисида”ги 419-сонли қарори
3. “Республика болалар ижтимоий мослашуви марказининг Устави”. Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 7 сентябрдаги 419-сонли қарорига 1-ИЛОВА.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 20 декабрдаги «Мактабгача таълим ва тарбиянинг Давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида»ги 802-сонли Қарори.
5. “Илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари”. «Мактабгача таълим ва тарбиянинг Давлат стандарти»га 1-Илова. (Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 22 декабрдаги 802-сон қарори).
6. Шахсга йўналтирилган ёндашув асосида таълим жараёнини режалаштириш /Методик қўлланма/ (Биринчи нашр). Тошкент -2020 й.
7. «Илк қадам» давлат ўқув дастури /такомиллаштирилган иккинчи нашр/. Тошкент-2022 й.
8. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент, 2009 й. -86-б.